

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
460 sahifa, sentyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakatlarning milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish	254
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов	259
Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна	
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari	266
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni	276
Raxmatov Aziz Tolipovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish	280
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash	286
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzalliklari	290
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi	295
Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari	299
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Mehnat resurslaridan foidalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari	306
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами	311
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar	318
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Особенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья	324
Маджидов Абдинаби Аманович	
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"dagi o'rnini yaxshilash choralari	330
Umarova Durdona Abdumannabovna	
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi	335
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Анализ механизмов управления и контроля финансовыми ресурсами на предприятиях с государственной долей, на примере АО "Узметкомбинат"	340
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili	347
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Сравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний	354
Утемуратова Магрифа Пердебаевна	
Uy - joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish	359
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li	



Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati.....	363
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	
Kimyo sanoatida loyihalarni baholash va monitoring qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....	369
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Gaz va gazkondensatning harakatlanish qobiliyatini oshirish usullar tahlili	374
Abdirazakov Akmal Ibragimovich, Boymurodov Boynazar Muradillayevich	
O'zbekiston sharoitida Agile davlat boshqaruvining kelajak istiqbollari	379
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
Bank korporativ boshqaruv samaradorligi va uning moliyaviy ko'rsatkichlari.....	384
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy risklari	390
Suxrob Narzullayevich Xolmatov	
Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekonometrik modellash va tahlil qilish.....	395
Djabbarov Rahimjon Abdullayevich	
To'qimachilik sanoatini iqtisodiy jihatdan rivojlanishida asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash algoritmi	400
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida qarz mablag'lari va xorijiy valyuta ayirboshlash bozorlarining ta'minot va talab mexanizmlari: nazariy asoslar va amaliy tahlil	406
Xalilova Sevaraxon Alijon qizi	
Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini shakllantiruvchi va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash	414
Umarov Davron Shavkatovich	
O'zbekistonda raqamli bozorlar rivojlanishi: asosiy tendensiyalar va raqobat holati	424
Saparov Islom O'lmasovich	
Rivojlangan mamlakatlar soliq mexanizmini qo'llash orqali O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini barqaror rivojlantirish	430
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
RAQAMLI TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNI JORIY ETISHDA QO'LLANALADIGAN IQTISODIY MODEL.....	437
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
NONPARAMETRIC SEQUENTIAL CONFIDENCE ESTIMATION BY FIXED-WIDTH CONFIDENCE INTERVALS: ASYMPTOTIC CONSISTENCY AND ASYMPTOTIC EFFICIENCY	444
Tursunov Gafur Tairovich	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	453
A.A. Ismailov	



DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

A.A. Ismailov

i.f.d., dotsent

Annotatsiya. Har qanday davlat moliya siyosatining asosini davlat budjeti tashkil qiladi. Shu sababli, davlat moliya siyosatining samaradorligini ta'minlash bevosita budjet siyosatining takomillashganlik darajasiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, fiskal barqarorlikni ta'minlash, budjet intizomini mustahkamlash va mahalliy budjetlar mustaqilligini kengaytirish jarayonlari davlat budjet siyosatini takomillashtirishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Tadqiqotda budjet siyosatining nazariy asoslari, uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli hamda soliqlar, davlat qarzi, defitsit darajasi va xarajatlar samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan.

Shuningdek, maqolada budjet jarayonining ochiqqligini ta'minlash, budjet daromadlari bazasini kengaytirish, davlat qarzini boshqarishning uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqish hamda innovatsion moliyaviy instrumentlardan (masalan, "yashil obligatsiyalar", davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari) foydalanishning istiqbollari ilmiy asosda yoritilgan. Muallif tomonidan davlat moliyasini boshqarishning zamonaviy tamoyillari, xususan, "natijaga yo'naltirilgan budjet" va "raqamli budjet" konsepsiyalarini joriy etish orqali fiskal siyosatning shaffofligini va samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: davlat, davlat budjeti, budjet siyosati, fiskal barqarorlik, daromad, xarajat, defitsit, soliqlar, qimmatli qog'ozlar, davlat qarzi, moliya siyosati, ochiqqlik, natijaga yo'naltirilgan budjet, raqamli boshqaruv.

Abstract. The state budget constitutes the foundation of any country's financial policy. Therefore, ensuring the effectiveness of fiscal management directly depends on the degree of advancement and modernization of budgetary policy. In recent years, the Republic of Uzbekistan has implemented large-scale economic reforms aimed at maintaining fiscal stability, strengthening budget discipline, and expanding the independence of local budgets — all of which have increased the relevance of improving budget policy. This study analyzes the theoretical foundations of budget policy, its role in economic regulation, and the interrelationship among taxation, public debt, budget deficit, and expenditure efficiency.

The article also explores measures to enhance the transparency of the budget process, broaden the revenue base, develop long-term public debt management strategies, and introduce innovative financial instruments such as "green bonds" and public-private partnership mechanisms. The author proposes the adoption of modern principles of public financial management — including "results-oriented budgeting" and "digital budgeting" — as key tools to enhance transparency and the overall efficiency of fiscal policy.

Key words: state, state budget, budget policy, fiscal stability, revenue, expenditure, deficit, taxation, securities, public debt, financial policy, transparency, results-based budgeting, digital governance.

Аннотация. Бюджет государства является основой всей финансовой политики любой страны. Следовательно, эффективность финансовой политики государства напрямую зависит от уровня совершенства бюджетной политики. В последние годы в Республике Узбекистан реализуются масштабные экономические реформы, направленные на обеспечение фискальной стабильности, укрепление бюджетной дисциплины и расширение самостоятельности местных бюджетов, что делает совершенствование бюджетной политики особенно актуальным. В исследовании анализируются теоретические основы бюджетной политики, её роль в регулировании экономики, а также взаимосвязь между налогами, государственным долгом, уровнем дефицита и эффективностью расходов.

В статье также рассматриваются вопросы обеспечения прозрачности бюджетного процесса, расширения базы доходов бюджета, разработки долгосрочных стратегий управления государственным долгом и перспективы использования инновационных финансовых инструментов (например, «зелёных облигаций» и механизмов государственно-частного партнёрства). Автор выдвигает предложения, направленные на повышение прозрачности и эффективности фискальной политики посредством внедрения современных принципов управления государственными финансами, таких как концепции «бюджет, ориентированный на результат» и «цифровой бюджет».

Ключевые слова: государство, государственный бюджет, бюджетная политика, фискальная устойчивость, доходы, расходы, дефицит, налоги, ценные бумаги, государственный долг, финансовая политика, прозрачность, бюджет, ориентированный на результат, цифровое управление.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida davlat moliyasini boshqarishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida budjet barqarorligini ta'minlash, budjet defitsitini nazorat ostida ushlab turish hamda davlat qarzi xavfsizligini saqlash masalalari alohida e'tiborga olingan. Strategiyada davlat budjeti defitsitining nominal yalpi ichki mahsulotga (YalIM) nisbatan 3 foizdan oshmaydigan darajasini ta'minlash, shuningdek, muvozanatlashgan va fiskal jihatdan mas'uliyatli budjet siyosatini yuritish makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri sifatida e'tirof etilgan [1]. Ushbu vazifa nafaqat iqtisodiy intizomni kuchaytirish, balki davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlashni ham ko'zda tutadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda budjet tizimini isloh qilish, fiskal intizomni oshirish, davlat xarajatlari samaradorligini baholash va davlat qarzini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, budjet jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlash, "fuqarolik budjeti" institutini rivojlantirish, natijaga yo'naltirilgan budjet tizimini shakllantirish bo'yicha bosqichma-bosqich islohotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, hududiy budjetlarning mustaqilligi, ularning daromad bazasini kengaytirish va resurslarni oqilona taqsimlash masalalari hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ayni vaqtda, respublikamizda muvozanatlashgan budjet siyosatini yuritish masalasi o'zining to'liq yechimini topgan emas. Budjet defitsiti, davlat qarzining o'sishi, soliqlarning yig'im darajasi va xarajatlar tarkibining samaradorligi kabi omillar davlat budjeti barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardir. Bundan tashqari, jahon moliya bozorlaridagi beqarorlik, inflyatsion bosimlar, global iqtisodiy inqirozlar va pandemiya oqibatlari milliy budjet siyosatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu sababli, davlatning budjet siyosatini takomillashtirish, fiskal boshqaruvni raqamlashtirish, shuningdek, resurslardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot aynan shu masalalarni yoritishga, ya'ni O'zbekiston sharoitida davlat budjet siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishning nazariy hamda amaliy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M. Sajina ta'kidlaganidek, davlat budjet siyosatiga iqtisodiy yondashuvning mohiyati shundan iboratki, budjet defitsiti muammosini uzoq muddatli davr mobaynida hal etish uchun, avvalo, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalasini tubdan hal qilish zarur [2]. Olimning fikricha, davlat budjeti defitsiti — bu faqat moliyaviy nomutanosiblik belgisi emas, balki iqtisodiyotning tarkibiy va institutsional zaif tomonlarini ham aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi. Shu bois, defitsitni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar faqat fiskal siyosat doirasida emas, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va soliq bazasini barqarorlashtirish yo'nalishida ham olib borilishi kerak.

Ye. Nikonova o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek, zamonaviy budjet siyosati, xususan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish davlat iqtisodiyotiga ichki investitsiyalar oqimini kuchaytiradi, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi va milliy raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur muhit yaratadi [3]. Uning fikricha, bunday siyosatning o'ziga xos xususiyati — iqtisodiy va moliyaviy moslashuvchanlikni ta'minlovchi universallikda namoyon bo'ladi. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatini global bozor sharoitlariga tez moslashtirish imkonini beradi.

T. Vershilo o'z izlanishlarida budjet mablag'laridan samarali foydalanishning ikki asosiy yo'lini ajratib ko'rsatadi: birinchisi, eng kam miqdordagi mablag'lar bilan maqsadga erishish; ikkinchisi esa, mavjud budjet mablag'laridan eng yuqori natijani olishga erishishdir. Bu jarayonda davlat budjeti defitsiti va kassaviy uzilishlar darajasi muhim rol o'ynaydi [4].

Ilmiy manbalarda keltirilganidek, davlat budjeti defitsiti va kassaviy uzilish tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Davlat budjeti defitsiti — bu davlat budjeti jami daromadlarining jami xarajatlarni to'liq qoplashga yetmay qolgan qismi bo'lsa, kassaviy uzilish — bu soliqlarning budjetga kelib tushish vaqti bilan xarajatlarni moliyalashtirish vaqti o'rtasida vaqtinchalik nomuvofiqlik yuzaga kelgan holatdir. Shu sababli, defitsitni kamaytirish va kassaviy muvozanatni ta'minlash fiskal siyosatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

S. I. Chepurovning fikricha, davlat xaridlari tizimida budjet mablag'laridan samarali foydalanish tamoyili faqat xaridlarni me'yorlash va iqtisodiy asoslashning uyg'unlashuvi orqali amalga oshiriladi [5]. Bu yondashuv davlat xarajatlari tizimida ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olishga va shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

J. M. Korres va A. Kokkinou tomonidan ilgari surilgan ilmiy yondashuvga ko'ra, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi kutilgan va erishilgan natijalar indeksini taqqoslash orqali baholanadi. Bu baholash mexanizmi davlat siyosatining amaliy natijalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega [6].



Yu. A. Kroxina esa budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash bo'yicha qonunchilikdagi noaniqliklarni ko'rsatadi. Uning fikricha, qonun chiqaruvchi organlar samaradorlik tamoyilini aniqlashga harakat qilgan bo'lsalar-da, amaliyotda bu konsepsiyani to'liq joriy etish bo'yicha metodologik yondashuvlar yetarli emas [7]. Shu bois, budget mablag'lari samaradorligini baholashda iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillar kompleks tarzda hisobga olinishi lozim.

H. Hakimovning fikriga ko'ra, budget qoidolari moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun zarur bo'lgan qonuniy cheklovlarni o'rnatadi. Unga ko'ra, budget qoidolari iqtisodiyotda resurslardan oqilona foydalanishni, ularning sarfini rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga tenglashtirishni ta'minlaydi [8]. Ayniqsa, xomashyo eksportiga tayanadigan mamlakatlarda bunday qoidalar iqtisodiy beqarorlik xavfini kamaytirish va fiskal barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Olimning fikricha, agar davlat budjeti surunkali defitsit holatida bo'lsa, budget qoidalarini joriy etish va qat'iy moliyaviy intizomni yo'lga qo'yish muvozanatni tiklash uchun zarur shartdir.

M. Xaydarov esa xarajat vakolatlari va majburiyatlarini daromad manbalari bilan muvofiqlashtirish masalasida tizimli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi [9]. U quyidagi muammolarni ajratib ko'rsatadi:

1. markaziy hokimiyat tomonidan belgilangan davlat vazifalarining bajarilishi uchun moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada aniqlanmaganligi;
2. yuqori budgetlardan quyi darajadagi budgetlarga ajratiladigan subvensiyalar mexanizmining samarasizligi;
3. ijtimoiy soha xarajatlarning markazlashgan va mahalliy budgetlar o'rtasida noaniq taqsimlanishi.

Olimning ta'kidlashicha, ushbu muammolar amalda mablag'lardan samarasiz foydalanish, takroriy moliyalashtirish va mas'uliyatning tarqoqligiga olib keladi. Shu bois, xarajat majburiyatlarini aniq chegaralash, ularni bajarish uchun moliyaviy manbalarni mustahkamlash hamda budgetlararo moliyaviy intizomni kuchaytirish O'zbekiston uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlil etilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, davlat budget siyosatini takomillashtirish masalasi nafaqat fiskal barqarorlik, balki iqtisodiy samaradorlik, investitsion faollik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, ilmiy manbalarda ilgari surilgan yondashuvlar O'zbekistonning hozirgi moliyaviy islohotlar jarayonida amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining davlat budget siyosatini takomillashtirishga doir nazariy, huquqiy va amaliy jihatlar kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, shuningdek, statistik-iqtisodiy hamda empirik tahlil usullari tashkil etdi.

Tizimli yondashuv asosida davlat budget siyosati mamlakatning makroiqtisodiy siyosati tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasining budget siyosati amaliyoti xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu esa mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish hamda takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

Statistik usul orqali 2020–2024-yillar davrida davlat budgetining daromadlari, xarajatlari, defitsit hajmi hamda soliqlar ulushining o'zgarish dinamikasi chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot davomida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "2025-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun, hamda xalqaro moliya tashkilotlari — Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning fiskal siyosatga oid tavsiyalari tahliliy manba sifatida qo'llanildi.

Metodologiya doirasida ilmiy xulosalar mantiqiy tahlil, modellashtirish va ekspert baholash usullari asosida ishlab chiqildi hamda budget siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar shakllantirildi. Ushbu yondashuv tadqiqotning nazariy asoslarini amaliy natijalar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, davlat moliya siyosatini samarali boshqarish bo'yicha kompleks ilmiy qarashlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1011-sonli "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budjetlarining olti oylik ijrosi yakunlari bo'yicha daromadlar prognozi bajarilmagan hamda joriy moliya yilining oxirigacha ularning to'liq tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmagan hollarda quyidagi tartibda choralar ko'riladi:


- respublika budjeti umumiy xarajatlarning 3 foizidan ortiq miqdordagi qismini qisqartirish — Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan amalga oshiriladi;
- respublika budjeti umumiy xarajatlarning 3 foizigacha bo'lgan qismini qisqartirish — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining taklifiga asosan Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilanadi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shuningdek tuman va shaharlar budjetlari xarajatlarini qisqartirish to'g'risidagi qarorlar tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar kengashlari tomonidan qabul qilinadi [10].

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari, mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Daromadlar	132 938	164 799	201 863	231 721	274 423
Xarajatlari	144 121	188 257	236 692	281 097	310 926

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, mazkur yillarda budjet defitsit bilan iro etilgan, ya'ni xarajatlari hajmi daromadlardan yuqori bo'lgan. Bu holat fiskal muvozanatni ta'minlashda hali ham muhim tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, budjet xarajatlarning asosiy qismini ijtimoiy yo'nalishdagi sarf-xarajatlari tashkil etadi. Bunda ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va infratuzilma sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi yildan yilga oshib bormoqda.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarning umumiy hajmida ijtimoiy xarajatlarning ulushi, foizda

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020–2024-yillarda ijtimoiy xarajatlarning ulushi davlat budjeti xarajatlari tarkibida sezilarli darajada yuqori bo'lib qolgan. Bu esa mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy xarajatlarning yuqori ulushi iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan doimiy tahlil va nazoratni talab qiladi.

E'tirof etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. Soliqlarning umumiy daromadlar tarkibidagi salmog'i yuqori bo'lib, bu fiskal siyosatning daromad tomonida soliq tushumlariga kuchli tayanishini ko'rsatadi.




2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida soliqlarning ulushi, foizda



2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillarda soliqlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi nisbatan yuqori bo'lib, 2024-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 64,9 foizni tashkil etgan. Shuningdek, 2021–2023-yillarda bilvosita soliqlar ulushi oshish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan sezilarli pasaygan. Bu holat iqtisodiyotda soliq bazasining tarkibiy o'zgarishlari, bilvosita soliqlarning qisqarishi va imtiyozlar tizimi ta'sirida yuzaga kelgan. Umuman olganda, soliq tushumlarining yuqori salmog'i fiskal siyosatni barqarorlashtirishda muhim omil bo'lsa-da, soliqqa tortish bazasining diversifikatsiyasi va noinflyatsion daromad manbalarini kengaytirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Davlat budjeti siyosati bilan bog'liq yana bir dolzarb muammo — budjet defitsitining yirik miqdorda saqlanib qolayotganidir. Shu bilan birga, davlat tashqi qarzining muayyan qismi budjet xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Bu holat makroiqtisodiy barqarorlik uchun xavf tug'diradi, chunki tashqi moliyaviy resurslarga haddan tashqari tayanish milliy valyuta barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzining Davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan qismi ulushi, foizda

3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzining budjet xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan qismi 2020–2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2024-yil yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich 47 foizga yetgan. Bu shuni anglatadiki, davlat budjeti xarajatlarning deyarli yarmi tashqi qarz mablag'lari hisobidan qoplanmoqda.

Bunday holat uzoq muddatli istiqbolda davlat qarzi barqarorligi va inflyatsion bosimning ortish xavfini yuzaga keltiradi. Chunki tashqi qarz hisobidan moliyalashtirilgan xarajatlar ichki pul massasining ortishiga, shu bilan birga, iste'mol narxlarining oshishiga olib keladi. Shuningdek, tashqi qarzning katta qismi infratuzilma va ijtimoiy loyihalarga yo'naltirilgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiy rentabelligi past bo'lishi qarzning xizmat ko'rsatish yukini oshiradi.

2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining asosiy tendensiyasi — daromad va xarajatlarning mutanosib o'sishi bilan birga barqaror defitsitning saqlanib qolishidir. Budjet siyosatini takomillashtirish uchun soliq bazasini kengaytirish, xarajatlarning natijadorligini oshirish, tashqi qarzga qaramlikni kamaytirish hamda budjet jarayonini raqamlashtirish orqali shaffoflikni kuchaytirish muhim strategik yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat budjet siyosatini takomillashtirish masalasi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, moliyaviy mustahkamligi va ijtimoiy rivojlanish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi strategik omil hisoblanadi. Tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, davlat budjet siyosatiga iqtisodiy yondashuvning mohiyati shundan iboratki, budjet defitsiti muammosini qisqa muddatli chora-tadbirlar orqali emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuv asosida hal etish lozim. Bu jarayonda fiskal intizomni kuchaytirish, davlat xarajatlarini maqbullashtirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi kuzatilgan va kutilgan natijalar o'rtasidagi tafovutni baholash orqali aniqlanadi. Bunda indikatorlar tizimi sifatida natijaviylik indeksi, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi va ijtimoiy ta'sir darajasi ishlatiladi. Ushbu yondashuv budjet mablag'larining haqiqiy foydalilik darajasini aniqlash va xarajatlarning maqsadlilik tamoyiliga muvofiqligini baholash imkonini beradi.

Uchinchidan, 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, ushbu davrda budjet defitsiti saqlanib qolgan. Ya'ni, xarajalar hajmi daromadlardan yuqori bo'lgan, bu esa fiskal muvozanatning to'liq ta'minlanmaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, budjet xarajatlarning tarkibida ijtimoiy xarajalar ulushi yuqori darajada saqlanib qolgan bo'lib, bu ijtimoiy siyosatning ustuvorligini aks ettiradi.

To'rtinchidan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai sifatida soliqlar ustun mavqega ega. Bu esa soliqqa tortish tizimini diversifikatsiya qilish, soliq imtiyozlarini optimallashtirish va soliqlarning yig'im darajasini oshirish zaruriyatini taqozo etadi.

Beshinchidan, davlat budjeti doimiy ravishda yirik defitsit bilan bajarilayotgani, tashqi qarzning muayyan qismi budjet xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilayotgani, shuningdek, ijtimoiy xarajatlarning normativ asosda rejalashtirilmayotgani fiskal siyosatning dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu asosda, davlat budjet siyosatini takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi:

1. Pul-kredit siyosati bilan fiskal siyosat o'rtasida muvozanatni ta'minlash. Tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining past va barqaror darajasini saqlash orqali xususiy sektorning investitsion faolligini oshirish lozim. Bu esa davlat budjeti xarajatlarining bir qismini xususiy kapital hisobidan moliyalashtirish imkonini yaratadi. Kredit resurslarining arzonlashuvi iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, soliq tushumlarining ortishiga va, natijada, budjet defitsitining qisqarishiga xizmat qiladi.

2. Davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish. Hukumat obligatsiyalari va boshqa moliyaviy instrumentlarning investitsion jozibadorligini oshirish orqali ularning emissiya hajmini kengaytirish zarur. Bu chora davlat tashqi qarziga qaramlikni kamaytirib, ichki moliyaviy resurslarni safarbar etish imkonini beradi. Qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi fiskal mustaqillikni mustahkamlashga yordam beradi.

3. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni takomillashtirish. Davlat budjetini uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish, budjet xarajatlarini rejalashtirishda muddatlilik va samaradorlik mezonlarini joriy etish zarur. Natijaviy budjetlashtirish tizimi har bir xarajat yo'nalishining aniq natija ko'rsatkichlari bilan bog'lanishini ta'minlaydi. Masalan, sog'liqni saqlash tizimida – davolangan bemorlar soni, ta'lim sohasida – oliy o'quv yurtlariga kirgan bitiruvchilar ulushi kabi ko'rsatkichlar budjet samaradorligini ifodalaydi.

4. Budjet jarayonida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish. "Raqqamli budjet" tizimini keng joriy etish orqali xarajatlar ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, budjet ma'lumotlarining ochiqqligini ta'minlash lozim. Bu esa korrupsiya xavfini kamaytiradi va fiskal siyosatning ishonchligini oshiradi.

Davlat budjet siyosatini takomillashtirish – bu faqat fiskal ko'rsatkichlarni yaxshilash emas, balki iqtisodiy o'sishning sifat jihatlarini mustahkamlash, ijtimoiy sohalarga investitsiyalarni ko'paytirish va davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks jarayondir. Shu bois, O'zbekiston sharoitida budjet siyosatini modernizatsiya qilish ilmiy asoslangan yondashuvlar, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va xalqaro tajriba bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 28-yanvar). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida [Farmon]. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022-01-29, 06/22/60/0082-son; 2022-03-18, 06/22/89/0227-son; 2022-04-21, 06/22/113/0330-son.
2. Сажина, М. А. (2005). Бюджетная политика государства. Финансы и кредит, (27), 2–12.
3. Никонова, Е. Ю. (2008). Бюджетная политика государства – основа реорганизации межбюджетных отношений. Вестник Чувашского университета, (4), 23–29.
4. Вершило, Т. В. (2012). Принцип результативности и эффективности использования бюджетных средств: правовые проблемы реализации. Финансовое право, (12), 21–24.
5. Чепуров, С. И. (2020). Развитие принципа эффективности использования бюджетных средств. Молодой учёный, (32), 88–89. <https://moluch.ru/archive/322/73052/>
6. Korres, G. M., & Kokkinou, A. (2014). Public spending efficiency: A stochastic frontier approach on technical efficiency and regional growth. International Journal of Social Ecology and Sustainable Development. <https://doi.org/10.4018/IJSESD.2014100101>
7. Крохина, Ю. А. (2018). Эффективное расходование бюджетных средств: состояние и перспективы совершенствования правового регулирования. Экономика. Право. Общество, 1(13), 34–39.
8. Hakimov, H. A. (2018). Budjet qoidalari va ularning iqtisodiy samaradorligi [Budget rules and their economic efficiency]. In Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro standartlarni joriy etish: muammo va yechimlar (pp. 510). T.: Iqtisodiyot.
9. Xaydarov, M. (2014). Budjet kodeksini joriy etish sharoitida xarajatlar majburiyatlarini reyestrini tuzish [Formation of the register of expenditure obligations under the conditions of the introduction of the Budget Code]. Iqtisod va moliya, (6), 2–9.
10. O'zbekiston Respublikasi. (2024, 24-dekabr). 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida [Qonun O'RQ-1011-son]. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2024-12-25, 03/24/1011/1062-son.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100